

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA KATARIYA

Preparatning savdo nomi: Katariya

Ta'sir etuvchi modda (XPN): natriy sitrat

Dori shakli: ichish uchun eritma tayyorlashga granular

Tarkibi:

Har bir sashe (5.6 g granula) quyidagilarni saqlaydi:

faol modda: natriy sitrati 4,0 g;

yordamchi moddalar: saxaroza, natriy saxarini va klyukva ta'm qo'shimchasi 191121.

Ta'rifi: klyukva ta'mli oqdan deyarli oq ranggacha bo'lgan sochiluvchan granular.

Farmakoterapevtik guruhi: siydik-tanosil tizimi va jinsiy gormonlar. Urologiyada qo'llaniladigan preparatlar. Urologiyada qo'llaniladigan boshqa preparatlar.

ATX kodi: G04BX

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Sitrat natriy samarasi siydikni kamroq kislotali qilishdan iborat.

Farmakokinetikasi

Qo'llanilmaydi.

Qo'llanilishi

Ayollarda sistit simptomlarini yengillashtirishda qo'llaniladi.

Qo'llash usuli va dozalari

Ayollarda qo'llanilishi: bir sashe ichidagi granular bir stakan suvda eritiladi, ikki kun davomida kuniga uch marta qabul qilish kerak.

Erkaklarda va bolalarda qo'llanilishi: tavsiya etilmaydi.

Nojo'ya ta'sirlari

O'rtacha darajali diurez kuzatilishi mumkin.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar

Anamnezida diabet, yurak kasalliklari, gipertoniya, buyrak kasalliklari bo'lgan bemorlar yoki tuzi kam tarkibli parhezga rioya qilayotgan bemorlarga. Homiladorlik va laktasiya davrida qo'llash mumkin emas.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Litiy qabul qilayotgan bemorlar natriy saqlaydigan preparatlarni qabul qilishdan saqlanishlari kerak, chunki natriy ko'proq buyraklar tomonidan absorbsiyalanadi, bu litiyni ekskresiyasi ko'payishiga va uning plazmadagi darajasi kamayishiga olib keladi.

Siydikni ishqorlaydigan preparatlar geksamin bilan birga qo'llanilmasligi kerak, chunki u faqat kislotali siydikda samarali.

Bir qator dorilarning ta'siri siydikning shqorlanishi va preparatning faol moddasi tufayli me'da pH darajasining pasayishi bilan zaiflashishi yoki kuchayishi mumkin.

Maxsus ko'rsatmalar

Agarda ikki kunlik davolanish kursini tugatgandan so'ng kasallik alomatlari davom etsa, tibbiy yordamga murojaat qilish kerak. Belgilangan dozadan oshmang.

Har bir paketda 1,55 g saxaroza bor. Fruktoza intoleransi, glyukoza-galaktoza malabsorbtsiyasi yoki saxaroza-izomaltaza etishmovchiligining noyob irsiy patologiyalari bo'lgan bemorlar ushbu dorini qabul qilmasliklari kerak.

Ushbu preparat tarkibida 0,008 g natriy saxarin mavjud.

Homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llanilishi

Homiladorlik va ko'krakdan emizish davrida preparatni qo'llash mumkin emas.

Transport vositasini va boshqa potentsial xavfli mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri

Tasir qilmaydi.

Dozani oshirib yuborilishi

Ushbu dori vositasining dozasini haddan tashqari oshirib yuborilsa, davolash simptomatik bo'lishi kerak.

Sitrat natriyning haddan tashqari ko'p qabul qilinishi me'da-ichakdagi noqulaylikni va diareyani chaqirishi mumkin. Natriy tuzlarining haddan tashqari ko'p dozalari natriy bilan ortiqcha yuklanishga va o'ta yuqori smolalanishga olib kelishi mumkin. Bikarbonatlarning haddan tashqari ko'p qabul qilinishi, ayniqsa, buyraklar funksiyalari buzilishi bo'lgan pasiyentlarda giperkaliyemiya va metabolik alkalozga olib kelishi mumkin. Davolash simptomatik va suv-elektrolit muvozanatiga tegishli tuzatish kiritishdan iborat.

Chiqarilish shakli

Natriy sitrat granulalari to'rt qavatli laminatsiya qilingan folgali sashelarga joylangan.

Har bir sashe 5.6 g granular saqlaydi, 6 dona sashedan tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoiti

Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin.

Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati

3 yil.

Preparat yaroqlilik muddati tugagandan so'ng qo'llanilmasin.

Dorixonalardan berilish tartibi

Resept bo'yicha.

Ishlab chiqaruvchi

Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Ishlab chiqarish manzili

Plot No. M-3, Indore Special Economic Zone,

Phase-II, Pithampur, Dist.-Dhar, Madhya Pradesh-454774, Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori vositalarining sifati bo'yicha e'tirozlar (takliflar)ni qabul qiluvchi tashkilotning nomi va manzili:

"BARAKA DORI FARM" MChJ XK

100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Halqa Yo'li ko'chasi, 91.

Tel.: + 998 78 150 97 97; faks: + 998 78 150 97 87

Uyali tel.: + 998 93 388 87 82

E-mail: pv@kusum.uz

Web-sayt: kusum.uz